



hokimligi  
maktabgacha va maktab ta'lifi  
boshqarmasi

maktabgacha va  
maktab ta'lifi bo'limi tasarrufidagi  
—umumi o'rta ta'lim maktabi  
7-“\_” sinf rahbari

ning  
2023-2024-o'quv yili uchun

**SINF SOATLAR  
ISH REJASI VA  
DARS ISHLANMALARI**

## Tushuntirish xati

Bolalarimizni birovlarning qo‘liga berib qo‘ymasdan, ularni o‘zimiz tarbiyalashimiz lozim.

Shavkat Mirziyoyev

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Xalq ta’limi tizimiga boshqaruvning yangi tamoyillarini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2018-yil 5-sentyabrdagi PQ-3931-son qarori hamda Vazirlar Mahkamasining “Umumi o‘rta ta’lim muassasalarida “Tarbiya” fanini bosqichma-bosqich amaliyotga joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2020-yil 6-iyuldagagi 422-son qarorida belgilandi. 2023-2024-o‘quv yilidan boshlab 1-11-sinflarda haftaning juma kunidagi birinchi darsni sinf rahbarlari va tegishli mutahassislar tomonidan “Sinf soati” sifatida o‘tilishi yo‘lga qo‘yildi. **Ma’lumki, sinf rahbari o‘z sinfidagi o‘quvchilarning bevosita ta’lim-tarbiya jarayoni, ya’ni darslar davomida hamda darsdan keyingi faoliyatini nazorat qilishga mas’ul shaxs hisoblanadi.**

Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida sinf rahbari faoliyati O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni, “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining ta’lim sohasidagi qarorlari, Xalq ta’limi vazirligi tomonidan ishlab chiqilgan tegishli me’yoriy hujjatlar va Xalq ta’limi vazirligining 2020-yil 30-iyuldagagi 180-sonli buyrug‘i 2-ilovasi bilan tasdiqlangan **“Ta’lim muassasalari sinf rahbari to‘g‘risida Nizom”** asosida tashkil etildi.

Mazkur dastur va metodik qo‘llanmayuqorida nomlari keltirilgan ta’limga oid huquqiy va me’yoriy hujjatlarga, shuningdek, umumiy o‘rta ta’limning uzluksizligi va izchilligiga, zamonaviy metodologiyalarga asoslangan.

**Dasturning maqsadi** — Sinf soatlarni mamlakatda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar, rivojlangan xorijiy mamlakatlarning ilg‘or tajribalari hamda ilm-fan va zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalariga asoslangan holda tashkil etish, zamon talablariga javob beruvchi, ma’naviy barkamol, faol fuqarolik pozitsiyasiga ega shaxslarni tarbiyalashdan iborat.

### Sinf soat dasturining vazifalari:

milliy, umuminsoniy va ma’naviy qadriyatlар asosida o‘quvchilarni tarbiyalashning samarali shakllari va usullarini joriy etish;

tarbiya jarayoniga pedagogik va zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish; o‘quvchilarni ijtimoiy hayotga tayyorlashda ta’lim, fan va ishlab chiqarishning samarali integratsiyasini ta’minalashdan iborat.

Bugungi kunda axborot oqiminining tezligi natijasida hayotimizga ommaviy madaniyatni salbiy ta’sirlari ham sezilmoqda. Bu masalani o‘quvchilarning ijtimoiy hayotlari misolida ko‘rishimiz mumkin. Ba’zida ota-onalar tomonidan bolalarning beodobligi, o‘z fikrini og‘zaki yoki yozma tarzda aniq ifodalay olmasligi, mas’uliyatning yetishmasligi, atrofidagilar bilan kelisha olmasligi, o‘ziga tegishli bo‘lgan mablag‘largni to‘g‘ri taqsimlay olmasligi haqidagi fikrlarni eshitib qolamiz. SHuning uchun ham dasturni ishlab chiqishda xaqlaro va milliy tajribaga asoslanilganligini alohida ta’kidlab o‘tish joizdir.

**“Ta’lim muassasalari sinf rahbari to‘g‘risida Nizom”**ga asosan “Sinf rahbari - Ta’lim muassasasining Sinf soati tizimidagi tayanch pedagoglardan biri bo‘lib, o‘ziga biriktirilgan sinf o‘quvchilarining amalda belgilangan ta’lim va tarbiya olishlarini tashkil etadi.” SHu nuqtai nazaridan olib qaraganda bugungi kunda ta’lim muassasalari **sinf rahbarlari faoliyatida quyidagilarga o‘xshash muammolar ko‘zga tashlanmoqda:**

- Ayrim sinf rahbarlari tomonidan o‘quvchilarni tarbiyalash jarayonida o‘z oldilariga qo‘yan maqsad va vazifalarining to‘g‘ri tashkil etilmaganligi;
- Sinf soatlarning aniq o‘quv-mavzu reja asosida tashkil etilmayotganligi;
- Ta’lim-tarbiya va ma’naviy-ma’rifiy sohaga oid qonunlar va qonunosti hujjatlarning ko‘philigidan o‘qituvchi va sinf rahbarlarining yetarli darajada xabardor emasligi;
- Ba’zi sinflardagi muhitning qoniqarli emasligi, ahil va mustahkam jamoaning shakllanmaganligi;
- Ayrim ta’lim muassasalarida davomatning pastligi, muntazam dars qoldiruvchi o‘quvchilar mavjudligi;
- Ba’zi sinflardagi o‘quvchilarda kundalik daftarlarining mavjud emasligi, borlarining ham sinf rahbari tomonidan nazorat qilinmaganligi;
- Ayrim o‘quvchilarning darslarga tayyorgarliksiz, hatto darsliklarsiz ishtirok etishlari;
- O‘quvchilar internet va mobil telefon qaramligining jismoniy va ruhiy xatarlari haqida yetarli tushunchalarga ega emasliklari;
- Voyaga yetmaganlar o‘rtasida turli zararli oqimlar ta’siriga tushib qolish, jinoyatchilik va huquqbuzarlik holatlarining uchrayotganligi;
- O‘quvchi tarbiyasida muhim o‘rin tutadigan kompetensiyalarga erishilmaganligi;

- Ba’zi o‘qituvchi va tarbiyachilarimizda kasbiy kompetensiyalar yetishmasligi;
- Sinf soati ishlar ta’sirchanligining pastligi;
- Ota-onalar bilan samarali muloqotning yo‘lga qo‘yilmaganligi;
- Huquqbuzarlik, mobil telefon va internet qaramligi, narkomaniya, tamaki va alkogol mahsulotlarini iste’mol qilishga qarshi kurash hamda oldini olish bo‘yicha samarali chora-tadbirlar tizimi ishlab chiqilmaganligi.

SHu o‘rinda masalaning muhim bir jihatiga e’tiboringizni qaratmoqchimiz. **Bugungi kunda umumta’lim maktablarida Sinf soatlar amalda qanday tashkil qilinmoqda?**

- Bugungi kundagi aksariyat hollarda Sinf soatlar quruq gaplardan iborat bo‘lib, Sinf soat mavzularidan chetga chiqib ketiladi;
- Qaysidir o‘quvchining xulqi muhokamaga qo‘yiladi;
- O‘quvchilarning fanlarni o‘zlashtirishlari va davomatlari muhokama qilinadi;
- Qandaydir tadbirlarga tayyorgarlik va sind muammolarini hal etish kabi masalalar xususida so‘z boradi.

#### **Sinf soatlar qanday bo‘lishi kerak?**

- Ta’lim jarayoni alohida, mustaqil darslardan tashkil topgani kabi Sinf soatlar ham yaxlit Sinf soati usullar, ta’sirchan vositalar yordamida amalga oshiriladi.
- Sinf rahbari ushbu tadbirlarni o‘tkazishga doir aniq ish rejasiga ega bo‘lishlari lozim.

Bugungi shiddatli davr barchamizdan axloqiy va ma’naviy jihatdan Sinf soati ishlarni yanada kuchaytirish lozimligini talab etmoqda. Ma’naviyat yo‘q ekan, inson ongli ijtimoiy shaxs bo‘la olmaydi. SHuning uchun ham sind rahbarlari va butun o‘qituvchilar jamoasi oldida o‘quvchilarga milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida hayot kechirishni o‘rgatishdek muhim vazifa turadi. Hozirgi globallashuv jarayonlari kuchaygan, turli g‘oyalar o‘rtasidagi kurash keskinlashgan, “ommaviy madaniyat” xurujlari butun dunyoga tarqalib borayotgan, internet tarmog‘i orqali uzatilayotgan buzg‘unchi axborotlar inson qalbi va ongini o‘ziga qaram qilishga urinayotgan tahlikali zamonda kelajagimiz bo‘lgan yosh avlodni hayotga tayyorlashning samarali shakl va uslublarini izlash davlat siyosati darajasidagi masalaga aylangan.

Sinf soati ishlarni davr talabiga javob beradigan holga keltirish uchun tarbiyaning asosi bo‘lgan barcha g‘oyalar qaytadan ko‘rib chiqilishi, asosiy e’tibor bola shaxsiga qaratilishi, yillar davomida to‘plangan ijobiy tajribadan unumli foydalanish zarurligini taqozo etadi. Inson shaxsining kamol topishi esa juda murakkab va uzlusiz jarayon davomida shakllanadi. Uning tarbiyasiga ota-onasi, maktab, mahalla, do‘srtlari, jamoat tashkilotlari, atrof-muhit, internet, ommaviy axborot vositalari, san’at, adabiyot, tabiat va hokazolar bevosita ta’sir ko‘rsatadi. SHuning uchun ham barcha sind rahbarlari o‘z Sinf soati faoliyatlarida ana shu mezonlarni hisobga olishlari shart.

Sinf soatlar o‘quvchilarda shakllangan tayanch kompetensiyalarni amaliyotga tadbiq etish maydoni hisoblanadi. To‘g‘ri tashkil etilgan Sinf soatlar o‘quvchilarda fanlar orqali shakllangan tayanch kompetensiyalarni ijtimoiy hayotda tadbiq eta olishlari uchun imkoniyat yaratib beradi.

O‘quvchilarda hulq-odob madaniyatiga rioya qilish, fikrini erkin ifodalash, notiqlik qobiliyatini yuksaltirish, axborotlardan to‘g‘ri va samarali foydalanish, shu bilan birga bu boradagi xalqaro hamda milliy qonunchilik qoidalariga rioya qilishni tarbiyalash Sinf soatlarning asosiy maqsadlaridan birdir. SHuningdek, Sinf soatlar orqali o‘quvchilarda to‘g‘ri kasb tanlash, kitobxonlik madaniyatini shakllantirish, bo‘sh vaqtini to‘g‘ri taqsimlash, o‘z iqtidorini rivojlantirish uchun turli to‘garaklarni to‘g‘ri tanlash, tayyor ish joylarida ishslash emas, balki o‘zi ish joylarni yaratishi kabi qobiliyatlar shakllantiriladi.

Sinf soat dasturlari oddiydan murakkablikka tamoyili asosida shakllantirilgan bo‘lib, quyidagi yo‘nalishl

Umumta’lim maktablarining 1-11-sinf o‘quvchilari uchun tuzilgan “Sinf soatlar uchun namunaviy mavzular rejasи” mazmunan Sinf soati-axloqiy hislatlarni shakllantirish bilan bir qatorda yurtimizda nishonlanadigan umumxalq bayramlari va muhim tarixiy sanalar asosida tuzildi. Bundan tashqari mazkur rejada fan oyliklari davomida o‘quvchilar uchun Sinf soati dars soatlarini o‘tishda nimalarga e’tibor berish kerakligi e’tiborga olingan.

Mazkur dastur va qo‘llanmada bugungi kunda sind rabarlari uchun amaliy va uslubiy yordam sifatida Respublika Ta’lim markazi mutaxassislari va amaliyotchilar hamkorligida “Sinf soat”larning mashg‘ulot ishlanmalari tavsiya etiladi.

“Sinf soat”lar rejasidagi 8 soatlik “Yo‘l harakati qoidalari”ga doir mavzular dasturi va dars ishlanmalari mazkur qo‘llanmada aks ettirilmagan.

Umumta’lim maktablarining o‘quvchilari uchun ishlab chiqilgan “Sinf soat” mashg‘ulot ishlanmalarida mazmunan o‘quvchilarda Sinf soati-axloqiy xislatlarni shakllantirish va mustahkamlash maqsadida donolar hikmatlariga va milliy qadriyatlarimizga hurmat, vatanparvarlik, insonparvarlik, jismoniy tarbiya, shaxsiy gigiyena, ozodalik, kiyinish odobi, bola huquqlari, tabiatni asrash, iqtisodiy tarbiya, salomlashish va muomala odobi, kitobni sevish kabilar bilan bir qatorda yurtimizda o‘tkaziladigan

umumxalq bayramlari va muhim sanalarni nishonlashda nimalarga e'tibor berish lozimligi to‘g‘risida tavsiyalar berilgan.

Sinf soatlarni quyidagi tartibda tashkil qilish mumkin:

Kun shiori:

I. Kirish;

II. Asosiy qism: hikoya, suhbat, ma’ruza, guruhlarda ishlash;

III. Yakuniy qism.

Sinf soatlarda foydalish uchun mavzuga doir adabiyotlar ko‘rgazmasi tashkil etiladi. Jarayonni ochiq muloqot, davra suhbati, bahs-munozara, treninglar va boshqa har xil noan’anaviy tarzda tashkil etish mumkin.

(Izoh: Taqdim etilayotgan Sinf soatlar dasturiga Umumta’lim maktablarining sinf rahbarlari metod kengashi qaroriga ko‘ra 15 % gacha o‘zgartirish kiritilishi mumkin.)

**Tasdiqlayman:**  
**Maktab MMIBDO‘:**  
**“Sinf soati” mashg‘ulotlarining 2023-2024-o‘quv yili uchun o‘quv-mavzu rejasi**  
**7-SINF**

<b>Nº</b>	<b>O‘tiladigan mavzular</b>	<b>Soat</b>	<b>Rejada</b>	<b>Amalda</b>
1.	O‘zbekiston –muqaddas diyor.	1		
2.	Umumiy qoidalari haqida. (Yo‘l harakati qoidalari)	1		
3.	Tarixiy obidalarga sayohat (27-sentyabr – Xalqaro turizm kuni)	1		
4.	Ustozlar – elda aziz (1-oktabr – O‘qituvchilar va murabbiylar kuni munosabati bilan).	1		
5.	Maktab mulki muqaddas, uni ko‘z qorachig‘iday asra	1		
6.	Ko‘chalarda piyodalar qanday harakatlanishlari kerak (Yo‘l harakati qoidalari)	1		
7.	Tilga e’tibor – elga e’tibor	1		
8.	O‘zbekistonda avtomobilsozlik sanoatini rivojlanish tarixi. (Yo‘l harakati qoidalari).	1		
9.	O‘smirlik yoshidagi qizlarning salomatligi va o‘ziga xos psixologik xususiyatlari	1		
10.	Bilimli yoshlar - yurt tayanchi	1		
11.	Bayrog‘imiz-faxrimiz (18 noyabr – O‘z.Res. Davlat bayrog‘i qabul qilingan kun munosabati bilan)	1		
12.	Yo‘l qoidasi-umr foydasi. (Yo‘l harakati qoidalari)	1		
13.	Qomsimiz- baxtimiz (8-dekabr – Konstitutsiya kuni munosabati bilan). (8	1		
14.	O‘zbekiston - Sharq mash’ali (10-dekabr – O‘z.Res. Davlat madhiyasi qabul qilingan kun munosabati bilan)	1		
15.	Maktab o‘quvchilari jinoyatchilikka yo‘l qo‘ymaydi	1		
16.	Yangi yilga yangicha qadam (Yangi yil bayrami yaqinlashishi munosabati bilan)	1		
17.	14 yanvar – Vatan himoyachilari kuni	1		
18.	Kitob ma’rifat chirog‘i.	1		
19.	Yo‘l belgilari (Buyuruvchi va axborot-ko‘rsatkich belgilari).	1		
20.	Buyuk allomalar hayoti – ibrat namunasi (Navoiy va Bobur tavallud kunlari)	1		
21.	Suyaklarning sinishi va chiqishi holatlarida birinchi yordam ko‘rsatish. (Yo‘l harakati qoidalari)	1		
22.	Fan, texnika – sirli tilsim	1		
23.	Hamma kasblar kerak, hamma kasblar muhim!	1		
24.	Jannat onalar oyog‘i ostidadir (8-mart – Xotin-qizlar kuni munosabati bilan)	1		
25.	Yo‘l belgilari (Buyuruvchi va axborot-ko‘rsatkich belgilari) (Yo‘l harakati qoidalari).	1		
26.	Qadimiq qadriyatlarimiz (21-mart – Navro‘z bayrami munosabati bilan)	1		
27.	Amir Temur tuzuklarida ilm-fan, axloq odob haqida (Amir Temur tavalludi munosabati bilan)	1		
28.	Velosiped, motosikl, hamda motorollerlarda odam va yuklarni tashishi qoidalari (Yo‘l harakati qoidalari )	1		
29.	Ona zamin (22-aprel – Xalqaro yerni muhofaza qilish kuni)	1		
30.	Shaxsiy layoqatlar	1		
31.	Xotira –ulug‘ qadriyat (9 may – Xotira va qadrlash kuni oldidan)	1		
32.	Mening xarakterim, kamchilik va yutuqlarim	1		
33.	Vaqtni qadrlash.	1		
34.	Foydali va maroqli dam – mehnatga hamdam	1		

Sana: " " 20 -yil. Sinf: \_\_\_\_\_ Sinf rahbari: \_\_\_\_\_

### 1-mavzu: O'zbekiston –muqaddas diyor!

#### I. Kirish:

**Sinf soati mashg'ulotning maqsadi:** Mustaqillik kunini nima uchun eng ulug', eng aziz ayyom sifatida bayram qilinishi, hayotimizdagi bugungi imkoniyatlar qanday paydo bo'lganligi, sobiq mustabid tuzum davrida xalqimiz qanday qiyinchiliklarni boshidan kechirganligi, Yurtimizda yoshlarning bilim olishi uchun qanday qulay imkoniyatlar yaratilganligi, dunyoda qanday gunoh kechirilmasligi haqidagi tushunchalar shakllantiriladi.

**Ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi** — jamiyatda bo'layotgan voqeа, hodisa va jarayonlarga daxldorlikni his etish va ularda faol ishtirok etish, o'zining fuqarolik burch va huquqlarini bilish, unga rioya qilish, mehnat va fuqarolik munosabatlarida muomala va huquqiy madaniyatga ega bo'lish

**Milliy va umummadaniy kompetensiya** — vatanga sadoqatli, insonlarga mehr-oqibatli hamda umuminsoniy va milliy qadriyatlarga e'tiqodli bo'lish, badiiy va san'at asarlarini tushunish.

**Mashg'ulot turi:** yangi bilim beruvchi, bilimlarni mustahkamlovchi, amaliy, nazariy, aralash, noan'aviy, ananaviy.

**Mashg'ulot uslubi:** tushuntirish, suhbat, tezkor savol – javob, amaliy mustaqil ishlar bajarish, munozara, muammoli topshiriq, ko'rgazmali va boshqalar.

**Mashg'ulot metodi:** guruhlarda ishlash, "kim epchil-u, kim chaqqon", "ko'rsam tezroq o'rganaman", "muammo va yechim" shu kabi metodlar.

**Mashg'ulot jihizi:** mavzuga oid rasm, ko'rgazmalar va tarqatma materiallar, o'quv qurollari, elektron materiallar.

#### Mashg'ulotning borishi:

**Tashkiliy qism:** a) Salomlashish.

b) Davomatni aniqlash.

**Uya vazifani so'rash:** a) Savol – javob o'tkazish.

b) Topshiriqlarni tekshirish.

#### II. Asosiy qism:

O'qituvchi:

Jahon keng, dunyoda mamlakatlar ko'p, lekin bu olamda betakror ona-yurtimiz – O'zbekistonimiz yakka-yu yagonadir. Bu go'zal yurt, bu go'zal zamin faqat bizga ato etilgan. Mana shu ulug' tuyg'i har birimizning dilimiz jo bo'lishi, hayotimiz mazmuniga aylanishi lozim.

O'zbekiston-kelajagi buyuk davlat. Bu-mustaqil, demokratik, huquqiy davlatdir. Bu insonparvarlik qoidalariga asoslangan, millati, dini, ijtimoiy ahvoli, siyosiy e'tiqodlaridan qat'i nazar fuqarolarining huquqlari va erkinliklarini ta'minlab beradigan davlatdir.



**2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasini** amalga oshirish, erishilgan yutuqlarni mustahkamlab, tub islohot jarayonlarini yangi bosqichga ko'tarish, inson huquq va manfaatlari, uning qadri, sha'ni va g'ururini yetakchi o'ringa olib chiqish ustuvor vazifamizga aylangan hozirgi vaqtida yurtimizda tinchlik va barqarorlikni saqlash, davlatimizning hududiy yaxlitligi va bo'linmasligi, sarhadlarimiz daxlsizligini ta'minlash, millatlararo totuvlik, diniy bag'rikenglilik va hamjihatlikni mustahkamlashga intilish ko'p millatli xalqimizni yanada birlashtiradigan, yuksak marralarga safarbar etadigan beqiyos kuchga aylanib bormoqda.

#### BESH TASHABBUS-BESH IMKONIYAT

Do'stim bekor o'tmasin kuning,

Ilm bilan bo'lgin yuzma-yuz.

Qara axir bizga sharoit,

Yaratmatmoqda beshta tashabbus.

#### III. Yakuniy qism:

Dars yakunida o'quvchilar bilan birgalikda olgan bilimlarni umumlashtirilib, savollar bilan mustahkamlanadi. O'quvchilar rag'batlaniriladi.

Sana: " " 20 -yil. Sinf: Sinf rahbari: \_\_\_\_\_

2-mavzu: Umumiy qoidalari haqida. (Yo'l harakati qoidalari)

### I. Kirish:

**Sinf soati mashg'ulotning maqsadi:** o'quvchilarga yo'l belgilari haqida tushunchalar berish, ko'chada yurish qoidalari orgatish;

**Axborotlar bilan ishlash kompetensiyasi** — media manbalardan zarur ma'lumotlarni izlab topa olishni, sarakashni, qayta ishlashni, saqlashni, ulardan samarali foydalana olishni, ularning xavfsizligini ta'minlashni, media madaniyatga ega bo'lish.

**Ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi** — jamiyatda bo'layotgan voqealarni, hodisa va jarayonlarga daxldorlikni his etish va ularda faol ishtirok etish, o'zining fuqarolik burch va huquqlarini bilish.

**Mashg'ulot turi:** yangi bilim beruvchi, bilimlarni mustahkamlovchi, amaliy, nazariy, aralash, noan'aviy, ananaviy.

**Mashg'ulot uslubi:** tushuntirish, suhbat, tezkor savol – javob, amaliy mustaqil ishlar bajarish, munozara, muammoli topshiriq, ko'rgazmali va boshqalar.

**Mashg'ulot metodi:** guruhlarda ishlash, "kim epchil-u, kim chaqqon", "ko'rsam tezroq o'rganaman", "muammo va yechim" shu kabi metodlar.

**Mashg'ulot jihizi:** mavzuga oid rasm, ko'rgazmalar va tarqatma materiallar, o'quv qurollari, elektron materiallar.

### Mashg'ulotning borishi:

**Tashkiliy qism:** a) Salomlashish. b) Davomatni aniqlash.

**Uyga vazifani so'rash:** a) Savol – javob o'tkazish. b) Topshirqlarni tekshirish.

### II. Asosiy qism:

Usbu Yo'l harakati qoidalari (keyingi o'rnlarda - "Qoidalari" deb ataladi) respublika hududidagi yo'llarda harakatlanishning yagona tartibini belgilaydi.

O'zbekiston Respublikasi yo'llarida transport vositalarining o'ng taraflama harakatlanish tartibi belgilangan.

Yo'l harakati qatnashchilar "Yo'l harakati xavfsizligi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni, ushbu Qoidalarni va unda keltirilgan svetofor ishoralari, yo'l belgilari (1-ilova), qatnov qismidagi chiziqlar (2-ilova)ning o'zlariga tegishli bo'lgan talablarini bilishlari, ularga amal qilishlari, shuningdek, o'zlariga berilgan huquq doirasida yo'llarda harakatni boshqarayotgan tartibga soluvchilarning ko'rsatmalarini so'zsiz bajarishlari shart.



Yo'Ining yonma-yon joylashgan qatnov qismlarini ajratuvchi, relssiz transport vositalari va piyodalarning harakatlanishi yoki to'xtashi uchun mo'ljallanganmagan alohida qismi.

Ajratuvchi bo'lak yotiq chiziq, yo'l sathidan baland qurilma, ko'kalamzorlashtirilgan joylar ko'rinishida bo'lishi mumkin.

**Asosiy yo'l** Tuproqli yo'lga nisbatan qattiq qoplamlari (asfalt va tsement betonli, tosh yotqizilgan va shunga o'xshashlar), kesishayotgan yoki tutashgan yo'lga nisbatan 2.1, 2.3.1-2.3.3 yoki 5.1 belgilari bilan belgilangan yo'l yoxud yondosh hududdan chiqadigan yo'lga nisbatan har qanday yo'l. Ikkinci darajali yo'lning bevosita chorrahaga tutash qismining qoplamlari bo'lishi uni asosiy yo'l bilan teng huquqli qilmaydi. **Avtomagistral** 5.1 belgi bilan belgilangan yo'l.

### Belgilangan yo'nalishli transport vositasi

Belgilangan yo'nalishi va bekatlari bo'lgan, yo'lovchi tashish uchun mo'ljallangan umumiy foydalanishdagi transport vositalari (trolleybus, avtobus, tramvay, yo'nalishli taksi).

### III. Yakuniy qism:

Dars yakunida o'quvchilar bilan birgalikda olgan bilimlarni umumlashtirilib, savollar bilan mustahkamlanadi. O'quvchilar rag'batlantiriladi.

Sana: "\_\_\_" 20 \_\_\_-yil. Sinf: \_\_\_\_ Sinf rahbari: \_\_\_\_\_

### 3-mavzu: Tarixiy obidalarga sayohat.

#### I. Kirish:

**Mashg'ulotning maqsadi;** Insoniyat tarixiy taraqqiyoti jarayonida madaniy, ma'naviy, milliy merosdagi avlod-ajdodlarimizdan qolgan odob-axloq haqidagi bilimlardan boxabar qilish. Har bir o'quvchi tomonidan bildirilayotgan fikr yoki g'oyalami rag'batlantirib borish.

**Axborotlar bilan ishlash kompetensiyasi:** Televizordan ko'rigan, radiodan eshitgan lavhalaridan ma'lumotlar tushunib aytib bera olish.

**O'zini-o'zi rivojlantirish kompetensiyasi:** kun tartibiga rioya qilish; kattalarni hurmat qilish;

**Ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi:** maktabda, oilada bo'layotgan jarayonlarda ishtirok etish; orasta kiyinish, maktab ichki tartib qoidalariga va gigiyena talablariga doimo rioya qilish.

**Mashg'ulot turi:** yangi bilim beruvchi, bilimlarni mustahkamlovchi, amaliy, nazariy, aralash, noan'aviy, ananaviy.

**Mashg'ulot uslubi:** tushuntirish, suhbat, tezkor savol – javob, amaliy mustaqil ishlar bajarish, munozara, muammoli topshiriq, ko'rgazmali va boshqalar.

**Mashg'ulot metodi:** guruhlarda ishlash, "kim epchil-u, kim chaqqon", "ko'rsam tezroq o'rganaman", "muammo va yechim" shu kabi metodlar.

**Mashg'ulot jihizi:** mavzuga oid rasm, ko'rgazmalar va tarqatma materiallar, o'quv qurollari, elektron materiallar.

#### Mashg'ulotning borishi:

**Tashkiliy qism:** a) Salomlashish. b) Davomatni aniqlash.

**Uyga vazifani so'rash:** a) Savol – javob o'tkazish. b) Topshiriqlarni tekshirish.

#### II. Asosiy qism:

Mustaqillik yillarda ona-Vatanimiz tarixini o'rganishga alo-hida e'tibor qaratildi. Istiqlol sharofati bilan ko'plab tarixiy obidalar, yodgorliklar tiklandi, buyuk ajdodlarimiz dafn etilgan joylar obodonlashtirildi.

Buyuk ajdodimiz Bahouddin Naqshband insonlarni ezgu-likka, halol mehnat qilishga va go'zal axloqli bo'lishga un-dagan. 1993-yilda yurtinnizda alloma tavalludining 675 yilligi keng nishonlandi. Hozir bu zotning milliy uslubda qayta tiklangan maqbarasi ziyyoratchilar bilan gavjum.

1998-yil Samarqandda Imom al-Buxoriy tavalludining 1225 yilligi tantana qilindi. Xartang qishlog'ida Imom al-Buxoriy yodgorlik majmui ochildi. Shu yili jahon ilm-fani taraqqiyotiga katta hissa qo'shgan ajdodimiz Ahmad al-Farg'oniy tavalludining 1200 yilligi ham keng nishonlandi. Farg'ona shahrida Ahmad al-Farg'oniy nomidagi istirohat bog'i ochilib, Quva shahrida uning haykali o'rnatildi.

Shuningdek, istiqlol yillarda jasur sarkarda Jaloliddin Manguberdi tavalludining 800 yilligi, «Alpomish» dostonining 1000 yilligi nishonlandi. Xorazmda Jaloliddin Manguberdi, Termizda esa Alpomish haykallari ochildi. 2000-yilda islom huquqshunosi Imom Burhoniddin Marg'inoniy tavalludining 910 yilligi nishonlandi. Marg'ilonda yodgorlik majmui bunyod etilib, allomaning ramziy maqbarasi o'rnatildi.

Urganchda «Avesto» kitobining 2700 yilligiga ba-g'ishlangan tantanalar bo'lib o'tdi. Yubiley munosabati bilan u yerda «Avesto» nomidagi yodgorlik majmui qad rostladi. Tiklangan yodgorliklar, tarixiy obidalar otabobolarimiz ruhiga hurmat-ehtirom ramzidir. Milliy ma'naviyatimizning yuksalishiga bebaho hissa qo'shgan ajdodlarimiz bilan har qancha faxrlansak arziydi. Buni yodda tuting!

«Avesto» - Sharq xalqlarining eng qadimgi yozma yod-gorligi, zardushtiyarning muqaddas kitobi.



#### III. Yakuniy qism:

Dars yakunida o'quvchilar bilan birgalikda olgan bilimlarni umumlashtirilib, savollar bilan mustahkamlanadi. O'quvchilar rag'batlantiriladi.

*veb-saytimiz: Zokirjon.com  
Hujjat Word variantda beriladi.*

*Zokirjon Admin bilan*

*90-530-00-68 nomerga murojaat qilishingiz, shu  
nomerdagi telegram orqali bog‘lanishingiz yoki  
nza4567 izlab telegramdan yozishingiz so‘raladi.*

*Telegramda murojaatingizga o‘z vaqtida javob  
beriladi*

*39 listdan iborat 7-sinf o‘quvchilarga  
Sinf soatini to‘liq holda olish uchun telegramdan  
yozing.*



**Narxi: 20 ming so‘m**

**Telegram kanalimiz:**

**@Maktablar\_uchun\_hujjatlar**

**To‘lov uchun: UZCARD \*880\*9860230104973329\*summa#**

**Plastik egasi Nabihev Zokirjon**



### **DIQQAT!!!**

Sizga bu **OMONAT** qilib beriladi.

To‘liq holda olganingizdan so‘ng:

Faqat o‘zingiz uchun foydalaning.

Hech kimga bermang hattoki eng  
yaqin insoningizga ham.

Internet orqali veb-saytlarga  
joylamang.

Kanal va gruppalarga tarqatmang.

**OMONATGA**

**HIYONAT QILMANG.**